XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 23-iyul VI-94-84-7-104-K/24 Toyloq tumani

Toyloq tumanining ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ini tasdiqlash to‘g‘risida

“O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda tasdiqlangan 03/4.3-253-sonli “Yo‘l xaritasi” hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining to‘qson to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Toyloq tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtirish bo‘yicha hududiy komissiyasining tumanning Samarqand shahar, Jomboy, Bulung‘ur, Urgut, Samarqand tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ini tasdiqlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Quyidagilar:

Toyloq tumanining Samarqand shahar, Jomboy, Bulung‘ur, Urgut, Samarqand tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga muvofiq; ma’muriy-hududiy chegarasining kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qarorning tasdig‘i xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashidan so‘ralsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (N.Raxmatova) “Qo‘shchinor” gazetasi tahririyati (M.Yuldashova)ga mazkur qarorni o‘rnatilgan tartibda e’lon qilinishini hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Tog‘ayev) hamda tuman hokimining o‘rinbosarlari (J.Xujamurodov, S.Eraliyev) zimmalariga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi

YULDASHOVA
MUTABAR
ABDUMANONOVNA

Xalq deputatlari Toyloq tumani
Kengashining
2024-yil 23-iyuldagi
VI-94-84-7-104-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Samarqand viloyati Toyloq tumani ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining
T A V S I F I

“___“ 2024-yil. Toyloq tumani

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan, Samarqand viloyati Toyloq tumani, Jomboy tumani, Bulung‘ur tumani, Urgut tumani, Samarqand tumani hamda Samarqand shahri bilan chegaradosh qismidagi ma’muriy chegarasini belgilash bo‘yicha tavsifi ishlab chiqildi.

Toyloq tumanining ma’muriy chegaralarini belgilashda boshlang‘ich nuqta qilib Toyloq tumani, Samarqand shahri va Jomboy tumani chegara chizig‘ining tutashgan joyi boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatlari 39°39'56,980", sharqiy uzunlik koordinatlari 67°04'50,692")*.

A dan B gacha Jomboy tumani yerlari bilan 1– 4- nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1 - nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi daryo o‘zani bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4412 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1686 metr masofani o‘tib, daryo o‘zanida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°38'19,131", sharqiy uzunlik 67°08'23,102")*.

2 - nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi daryo o‘zani bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 929 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2714 metr masofani o‘tib, daryo o‘zanida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°37'14,525", sharqiy uzunlik 67°10'12,102")*.

3 - nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi daryo o‘zani bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3432 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5000 metr masofani o‘tib, Bulung‘ur tumani yerlari bilan chegaradosh daryo o‘zanida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°35'08,542", sharqiy uzunlik 67°14'34,779")*.

B dan D gacha Bulung‘ur tumani yerlari bilan 4 – 6 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

4 - nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi daryo o‘zani bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3218 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1152 metr masofani o‘tib, daryo o‘zanida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°33'51,320", sharqiy uzunlik 67°16'47,867").*

5 - nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi daryo o‘zani bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 7849 metr masofani o‘tib, Urgut tumani yerlari bilan chegaradosh daryo o‘zanida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°33'34,206", sharqiy uzunlik 67°21'51,821")*

D dan E gacha Urgut tumani yerlari bilan 6 – 24 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:.

6 - nuqtadan chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda Zarafshon daryosini 1207 metr masofada kesib o‘tadi, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 382 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°32'45,945", sharqiy uzunlik 67°21'46,380").*

7 - nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 140 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 150 metr, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 600 metr masofani o‘tadi, so‘ngra qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan 115 metr masofada o‘tadi, keyin Aylanma Darg‘om kanalini 72 metr masofada kesib ariqqa tutashadi va ariq bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 33 metr masofani o‘tib, Aylanma Darg‘om kanali bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°32'32,444", sharqiy uzunlik 67°21'09,972").*

8 - nuqtadan chegara chizig‘i Darg‘om kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 453` metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 540 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1565 metr, so‘ng g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 928 metr, so‘ngra g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 626 metr masofada tomorqaga tutashadi va tomorqa chegarasi bo‘ylab g‘arbiy yo‘nalishda 842 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 51 metr masofada A-377 avtomobil yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 215 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°32'22,052", sharqiy uzunlik 67°18'01,299").*

9 - nuqtadan chegara chizig‘i A-377 avtomobil yo‘lini kesib ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 670 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 390 metr, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 3280 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°31'11,902", sharqiy uzunlik 67°16'19,945").*

10 - nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 273 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1571 metr,

so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2152 metr, so‘ngra g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Darg‘om kanalini 30 metr masofada kesib o‘tadi va kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 1471 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 75 metr masofani o‘tib, Darg‘om kanali bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°30'37,242", sharqiy uzunlik 67°13'24,901").*

11 - nuqtadan chegara chizig‘i Darg‘om kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1846 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 374 metr masofani o‘tib, Darg‘om kanali bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°30'24,601", sharqiy uzunlik 67°11'58,943").*

12 - nuqtadan chegara chizig‘i Darg‘om kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 705 metr masofani o‘tib, Darg‘om kanali bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°30'32,560", sharqiy uzunlik 67°11'33,765").*

13 - nuqtadan chegara chizig‘i Darg‘om kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2393 metr masofani o‘tib, Darg‘om kanali bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°31'07,689", sharqiy uzunlik 67°10'23,788").*

14 - nuqtadan chegara chizig‘i Darg‘om kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 797 metr masofani o‘tib, Darg‘om kanali bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°31'19,077", sharqiy uzunlik 67°09'57,411").*

15 - nuqtadan chegara chizig‘i Darg‘om kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 775 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 410 metr, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 269 metr masofada Darg‘om kanalini kesib o‘tib ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 666 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 91 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 108 metr, so‘ng g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2329 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 263 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 198 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°32'36,372", sharqiy uzunlik 67°07'48,465").*

16 - nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 557 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°32'26,708", sharqiy uzunlik 67°08'05,945").*

17-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 385 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishdag 120 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 332 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 130 metr, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 231 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 95 metr, keyin Darg‘om kanalini janubiy yo‘nalishda 49 metr masofada quruq chegara chizig‘i orqali kesib

o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°31'54,055", sharqiy uzunlik 67°07'45,173").*

18-nuqtadan chegara chizig‘i Darg‘om kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1612 metr masofani o‘tib, Darg‘om kanali bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°32'18,930", sharqiy uzunlik 67°06'58,958").*

19-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali 159 metr masofada ariqqa tutashadi va ariq bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 109 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 161 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 409 metr masofada qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lnig janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 36 metr, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 660 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 236 metr masofada ariqqa o‘tadi va ariq bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 149 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°32'46,912", sharqiy uzunlik 67°06'23,944").*

20-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 50 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 138 metr masofada kanalga tutashadi va kanal bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 690 metr, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 200 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 390 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1340 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 490 metr, so‘ngra g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 450 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°33'09,291", sharqiy uzunlik 67°04'40,225").*

21-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga ogan holda 627 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°32'52,131", sharqiy uzunlik 67°04'37,992").*

22-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 874 metr masofada devorga o‘tadi va devor bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 166 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 176 metr masofada ariqqa tutashadi va janubiy yo‘nalishda ariqnig suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 40 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 998 metr masofada qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 690 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°32'23,958", sharqiy uzunlik 67°02'48,690").*

23-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1691 metr masofani o‘tib, Samarqand tumani yerlari bilan chegaradosh yo‘l bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°33'03,761", sharqiy uzunlik 67°02'01,054").*

E dan F gacha Samarqand tumani yerlari bilan 24 – 26 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:.

24-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 831 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1636 metr masofani o‘tib, Darg‘om kanali bo‘yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°34'04,424", sharqiy uzunlik 67°02'12,000").*

25-nuqtadan chegara chizig‘i Darg‘om kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holga umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3339 metr masofani o‘tib, Samarqand shahri yerlari bilan chegaradosh M-39 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°34'35,168", sharqiy uzunlik 67°01'00,911").*

F dan G gacha Samarqand shahri yerlari bilan 26 – 27 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:.

26-nuqtadan chegara chizig‘i M-39 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 361 metr masofani o‘tib, Samarqand tumani yerlari bilan chegaradosh yo‘l bo‘yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°34'40,732", sharqiy uzunlik 67°01'14,202").*

G dan H gacha Samarqand tumani (2-uchastka) yerlari bilan 27 – 30 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:.

27-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 43 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 199 metr masofada tomorqa devoriga o‘tadi va tomorqa devori bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 56 metr masofada yo‘lga o‘tadi va yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 135 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 442 metr, so‘ng umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 542 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°34'42,517", sharqiy uzunlik 67°01'57,580").*

28-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 80 metr masofada kanalni kesib o‘tib zovurga tutashadi va zovurning suv oqimiga qarshi chab tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1132 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°35'10,330", sharqiy uzunlik 67°02'19,488").*

29-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chab tomoni bilan 275 metr, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hiobga olgan holda 1065 metr masofani o‘tib, Samarqand shahri yerlari bilan chegaradosh M-39 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°35'43,698", sharqiy uzunlik 67°01'58,072").*

H dan A gacha Samarqand shahri yerlari bilan 30 – 1 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:.

30-nuqtadan chegara chizig‘i M-39 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 510 metr masofani o‘tib, M-39 avtomobil

yo‘li bo‘yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°36'00,150", sharqiy uzunlik 67°02'00,248").*

31-nuqtadan chegara chizig‘i M-39 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 1216 metr masofani o‘tib, M-39 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°36'39,359", sharqiy uzunlik 67°02'05,404").*

32-nuqtadan chegara chizig‘i M-39 avtomobil yo‘lidan qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 1290 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°36'41,667", sharqiy uzunlik 67°02'59,084").*

33-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 735 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°37'01,798", sharqiy uzunlik 67°03'11,497").*

34-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 397 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1091 metr, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda A-377 avtomobil yo‘lini 22 metr masofada kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°37'27,796", sharqiy uzunlik 67°03'52,127").*

35-nuqtadan chegara chizig‘i “A-377” avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 22 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 500 metr, so‘ng shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 161 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 271 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°37'53,861", sharqiy uzunlik 67°04'04,249").*

36 - nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda umumiy 835 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°37'47,905", sharqiy uzunlik 67°04'35,093").*

37 - nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1910 metr masofada o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°38'34,663", sharqiy uzunlik 67°04'19,995").*

38-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 403 metr masofani o‘tib, ariq bo‘tida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°38'45,467", sharqiy uzunlik 67°04'29,416").*

39-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 474 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°39'00,759", sharqiy uzunlik 67°04'28,032").*

40- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 207 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 18 metr, so‘ng sharqiy-

janubiy-sharqiy yo‘nalishda 142 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°38'59,882", sharqiy uzunlik 67°04'42,371")*.

41- nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 161 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°39'04,698", sharqiy uzunlik 67°04'44,918")*.

42 - nuqtadan chegara chizig‘i g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 69 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°39'05,645", sharqiy uzunlik 67°04'42,278")*.

43-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1578 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°39'54,302", sharqiy uzunlik 67°04'45,407")*.

44 - nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 151 metr masofani o‘tib, Zarafshon daryosi bo‘yida joylashgan boshlang‘ich 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°39'56,980", sharqiy uzunlik 67°04'50,692")*.

Xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashining
2024-yil 23-iyuldagi
VI-94-84-7-104-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Xalq deputatlari Toyloq
tuman kengashining
2024-yil "___"_____dagi
_____- son qaroriga 2-ilova

Samarqand viloyati Toyloq tumanining chegara CHIZMASI

